E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

YANGI O‘ZBEKISTON MA’RIFATPARVARI

Crossref Doi : https://doi.org/10.37547/iqro-volume04-issue01-38

Shirinova Nigina Bobir qizi
Buxoro davlat universiteti
Iqtisodiyot va turizm fakulteti
Iqtisodiyot yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya
Ushbu maqolada yangi O‘zbekistonda yuz berayotgan innovatsion rivojlanish, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning so‘zlagan nutqi, mamlakatimiz iqtisodiyoti o‘sishi uchun olib borilayotgan chora-tadbirlar hamda iqtisodiyotda innovatsiyalarning tutgan o‘rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar

Innovatsiya, islohotlar, davlat, jamiyat, raqamli iqtisodiyot, kichik biznes, investorlar, texnologiyalar, elektron hukumat, intellektual mulk.

Аннотация

В этой статье рассматривается инновационное развитие, происходящее в новом Узбекистане, выступление президента Шавкат Мирзиеева, меры, принимаемые для роста экономики нашей страны, а также роль инноваций в экономике.

Ключвые слова

Инновации, реформы, государство, общество, цифровая экономика, малый бизнес, инвесторы, технологии, электронное правительство, интеллектуальная собственность.

Annotation

This article reflects on the development of innovation in New Uzbekistan, the speech of our President Shavkat Mirziyoyev, the measures taken for the growth of the economy of our country and the role of innovation in the economy.

Key words

Innovation, reform, state, society, digital economy, small business, investors, technology, e-government, intellectual property

Bugungi yangilanayotgan O‘zbekistonda biror bir soha yo‘qki, innovatsiya, kashfiyotlar qilinmagan hamda yangi izlanishlar kiritilmagan. Yildan-yilga rivojlanayotgan zamonda innovatsiyalarning ham kengqo‘lamliligi, kun sayin yangi va mukammal texnologiyalarning ortishi insonlar va jamiyat hayoti uchun bir qancha qulayliklar hamda yengilliklar yaratmoqda. O‘zbekiston Respublikasi mutaqillikka erishgan yillardan boshlab hozirgi kunga qadar chorak asrdan oshdiki, shu yillar mobaynida mamlakatimizda qilingan islohotlar, yangilanishlar, ma’lum sohalardagi o‘zgarishlar ko‘zga tashlanadigan darajada rivojlandi. Ayniqsa, Prezidentimiz Mirziyoyev Shavkat Miromonovich tomonidan, olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada

oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirish maqsadida 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlangan. Ushbu strategiyada iqtidodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish kabi g'oyalar ilgari surilgan. Shuni aytib o'tish joizki, yangilanayotgan O'zbekistonda har bir sohada o'zgarishlar, rivojlanishlar bosqichi davri yuz beryapti. Shu sohalar orasidan iqtisoiyot sohasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bugungi kunda "elektron hukumat" va raqamli iqtisodiyot tizimi doirasidagi loyihalarni amalga oshirish yurtimiz rivoji uchun ulkan hissa qo'shmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-son Farmoni iqtisodiyot sohasida qilinishi kutilyotgan hamda ayni vaqtda qilinayotgan o'zgarishlar natijasidir.

Yangi O'zbekistonning rivoji uchun o'z hissasini qo'shayotgan ko'plab soha vakillari bugungi kunda o'z tajribasi, bilimi, investitsiyalari hamda malakasi orqali mamlakat rivoji uchun salmoqli ta'sir ko'rsatmoqda. Iqtisodiyot sohasida ham qilinayogan o'zgarishlar, iqtisodchilar tomonidan kiritilayotgan yangidan-yangi tadqiqotlar hamda iqtisodimizning o'sishiga turtki bo'layotgan innovatsiyalar bunga misol bo'ladi. Hozirgi vaqtda innovatsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirishning eng xarakterli xususiyatlaridan biriga aylanib bormoqda. Yaqinda bu nom noma'lum va hatto professionallar orasida ham unchalik aniq bo'lmagan narsani eslatardi, ammo endi innovatsiyaning o'zi ham, uning tushunchalari ham dunyoni tezda zabt etmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Iqtisodiyotda boshqaruv tizimi eskirgani, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha samarali mexanizmlar o'z vaqtida joriy qilinmagani ham jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Shuningdek, texnologik qoloqlik, resurs va energiyani tejaydigan texnologiyalar, muqobil energiya manbalarini tatbiq etishning sustligi ham iqtisodiy taraqqiyot yo'lida to'siq bo'lmoqda", deya ta'kidlab o'tgan. O'zbekiston iqtisodiy holatining innovatsiyalar bilan o'zaro bog'liqligini quyidagi asosiy jihatlarda ko'rish mumkin, ya'ni innovatsiya faoliyatining milliy iqtisodiyotga ta'sirini tadqiq etish nuqtai nazaridan davlatning moddiy asosi sifatida butunligicha ko'rish; innovatsiyalarning alohida korxona faoliyatiga ta'sirini tahlil qilishda alohida bozor subyekti sifatida qarash; innovatsiya siyosatini amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini o'rganish.

O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovatsiyalar, avvalo uning barqaror o'sishi uchun zarurdir. Yangi texnologiyalarga investitsiyalar raqobatbardosh, yuqori talab bilan iste'mol etiladigan tovarlar ishlab chiqarishga yordam beradi.

Mamlakat iqtisodiyoti va iqtisodiyot subyektlarining tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir ko'rsatishning asosiy vositalaridan biri – davlat iqtisodiy siyosatining bo'g'inlaridan hisoblanuvchi innovatsiya siyosatidir. Davlat innovatsiya siyosati yordamida bevosita ishlab chiqarish hajmi sur'atlari oshishiga, fan-texnika taraqqiyoti tezlashishiga, ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilishi o'zgarishi, ijtimoiy muammolarni hal qilishga ta'sir o'tkaza oladi.

Xulosa qilib aytsak, O'zbekiston Respublikasida innovatsion iqtisodiyotni shakillantirish va yanada rivojlantirish maqsadida bir qancha asosiy ishlar va chora-tadbirlar majmuini qisqacha yoritib o'tsak:

- rivojlangan mamlakatlardagi biz uchun kerak bo'lgan barcha texnologik bilim va yangiliklarni o'rganish, va respublika iqtisodiyoti tarmoqlariga bosqichma-bosqich milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda tatbiq qilish;
- asosiy ahamiyatga ega bo'lgan ichki innovatsion loyihalarga investorlarni hamda xorijiy kapitalni jalb qilish;
- texnoligik innovatsiyalarga bag'ishlangan bilimlar bazasini tashkil qilish va unda internet portal orqali barcha fuqarolar foydalana olishlariga erishish;
- innovatsiyani rivojlantirish, bu sohadagi yutuqlarni yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotga aylantirishda intellektual mulkning ishonchli himoyasini ta'minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-2021-yillarda Harakatlar strategiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni.
3. Yo`ldoshev N.Q. va boshqalar. «Innovatsion menejment». Darslik. TDIU. 2011 y. — 312 b.
4. O'zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojatnomasi. http://uza.uz.
5. «Инновационная экономика» А.А.Динкин и другие. – М.: Наука , 2001.
6. Мухамедьяров А.М. "Инновационный менеджмент" учебное пособие – М.:Инфра – М, 2006. — 127 с.
7. Jurayevich J. K., Sayfullayevich A. S. THE UNIQUE OF BUKHARA JEWS IN THE DYE INDUSTRY AND WEAVING CRAFT //Euro-Asia Conferences. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – С. 48-53.
8. Abdullayev S. S., Hamroyev J. B. Features of the Organization of Pedagogical Practice. – 2023.
9. Sayfullayevich A. S. Development and Dynamics of Bukhara Ornamental Art at the Modern Stage of Uzbekistan's Independence //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 31-35.
10. Muxitdinovna, A. Z. (2022). Mantessori Preschool Organizations. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, *3*(1), 373-377.
11. Ashurova, Zarina Muxitdinovna. "Using STEAM Technology in Preschool Education." *European journal of innovation in nonformal education* 2.6 (2022): 6-10.
12. Muxitdinovna, Zarina Ashurova. "Features of the Development of Speech in Preschoolers." *American Journal of Social and Humanitarian Research* 3.1 (2022): 245-251.
13. Ashurova Z. M. METHODOLOGY FOR ORGANIZING TRAINING BASED ON STEAM TECHNOLOGY IN PRESCHOOL EDUCATION (PRACTICAL LESSON FOR PRESCHOOLERS) //International Conference of Education, Research and Innovation. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 99-104.